

DARVISHXON BOSHCHILIGIDAGI QO'ZG'OLON VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zulfiyaolimova98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida 1885-yilda bo'lib o'tgan Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon va uning tarixiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Garchand qo'zg'olon mustamlaka hukumati tomonidan kuch bilan bostirilgan bo'lsada, bundan keying milliy ozodlik harakatlariga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: Darvishxon, Asaka qishlog'i, Chekto'ra qishlog'i, Mullaxo'ja Nazirmirza, Bryanov, podpolkovnik Deybner, O.Rozenbax, P.S.Vannovskiy, chorizm, Sutxona qishlog'i, Mo'minboy, qurolli harakat.

ВОССТАНИЕ ПОД РУКОВОДСТВОМ ДАРВИШХАНА И ЕГО ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье рассказывается о восстании под предводительством Дарвиш-хана в Ферганской долине в 1885 году и его историческом значении. Хотя восстание было жестоко подавлено колониальным правительством, оно создало основу для последовавших за ним национально-освободительных движений.

Ключевые слова: Дарвишхан, село Асака, село Чектора, Муллаходжа Назирмирза, Брянов, подполковник Дайбнер, О. Розенбах, П.С. Ванновский, царизм, село Сутхона, Моминбой, вооруженное движение.

THE REVOLT UNDER THE LEADERSHIP OF DARVISHKHAN AND ITS HISTORICAL SIGNIFICANCE

Abstract: This article talks about the uprising led by Darvish Khan in the Ferghana Valley in 1885 and its historical significance. Although the uprising was violently suppressed by the colonial government, it created a foundation for the national liberation movements that followed.

Key words: Darvishkhan, Asaka village, Chektora village, Mullahhoja Nazirmirza, Bryanov, lieutenant colonel Deibner, O. Rosenbach, P.S. Vannovsky, tsarism, Sutkhona village, Mominboy, armed movement.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach mustamlakachilik siyosati va amaliyoti uning bu o'lkada o'z davlatchiligini koriy etish orqali olib borildi. Turkiston

o'lkasida milliy davlatchilikka barham berildi va Chor Rossiyasi o'zining boshqaruv tizimini joriy qildi. Bu davrda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan amalga oshirilgan iqtisodiy va milliy zulm Turkiston xalqlari orasida milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga olib keladi.

XIX asrning 80-90-yillarida Farg'ona vodiysida ham qo'zg'olonlar avj oladi. Qo'zg'olonchilar o'zlariga qarashli bo'lgan va ularga nisbatan zulm o'tkazayotgan boylar hamda volost boshliqlarining uylariga o't qo'yish va hujumlar uyushtirishni kuchaytiradilar. Qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, 1885-yildan 1892-yilgacha Farg'ona viloyatida aholining siyosiy ko'rinishdagi noroziliklari va qo'zg'olonlari 205 marta sodir bo'lgan. Hozir ana shunday qo'zg'olonlardan birini ko'rib chiqamiz.

1885-yilda Farg'ona vodiysida mustamlakachi hukumatga qarshi umumxalq qo'zg'oloniga tayyorgarlik ko'rila boshlaydi. Vodiyning bir qator joylarida mustamlaka hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish uchun tayyorgarlik masalalari yashirin tarzda yig'ilishlarda muhokama qilinadi. Rossiya hukumati ham bu voqealardan xabar topgan edi. Ana shunday yig'ilishlardan biri 1885-yilning 16-avgustida Asaka qishlog'ida Mullaxo'ja Nazirmirza uyida bo'lib o'tadi. Ushbu yig'ilishda vodiyning turli joylaridan kelgan 20 dan ortiq nufuzli shaxslar qatnashib, Turkiston o'lkasini chet el bosqinchilaridan ozod qilish, o'lkada yana ilgarigidek milliy davlatni tiklash uchun mustamlakachilarga qarshi birgalikda harakat qilib kurash olib boorish vazifasi ilgari suriladi. Yig'ilishda qo'zg'olonni olib borish rejasi, uni o'tkazish vaqti, qo'zg'olonga rahbarlik qiladigan yo'l boshchi tayinlash masalalari hal etiladi. Qo'zg'olonga rahbar etib Darvishxon Eshon To'ra tayinlandi. Chunki, bu shaxs aholining norozilik chiqishida faol ishtirok etib aholi orasida ancha tanilib qolgan edi. "U Andijon uyezdi Qo'rg'ontepa volostiga qarashli Chekto'ra qishlog'i fuqarosi, qo'zg'olonga rahbarlik qilgan payrda 45 yoshda bo'lib, Andijon va Qo'qon uyezdlarida ancha katta yer mulkka ega bo'lgan. Ammo shunga qaramasdan Darvishxon o'z manfaatidan xalq, vatan manfaatlarini ustun qo'yib, milliy ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. U qisqa vaqt ichida O'sh, Andijon uyezdlari volost va qishloqlarida ko'plab aholini qo'zg'olonga jalb eta oladi."¹ Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Yangi Marg'ilon shahrini Andijon va Qo'qon bilan bog'lab turgan aloqa simlarini uzib tashlaydi. Bu hodisa to'g'risida keyinchalik mustamlakachi hukumat vakillaridan biri "bu hodisa qo'zg'olon bo'lishi muqarrar ekanligini ko'rsatgan edi"² deb xotirlagan. Darvishxon qo'zg'olonining ko'lami tobora kengayib boradi. Asaka, Qo'rg'ontepa, Shahrixon, Oltinko'i, Jalolquduq, O'sh uyezdining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqbo'ya volosti, Marg'ilon kabi joylar ham bevosita qo'zg'olon girdobiga tortilgan edi.

Darvishxon qo'zg'oloni tobora keskin tus ola boshlaydi. Qo'zg'olonni bostirish

¹ R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vtan tarixi. Toshkent. 2010.

² S.Tillaboyev. Mustamlakachilarga qarshi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2002.

uchun mustamlaka ma'murlari viloyatning turli hududlariga shu jumladan, Andijon, O'sh va Marg'ilon uyezdlariga harbiy kuchlarni jo'natishga majbur bo'ladi. Ushbu qo'zg'olonni butunlay bostirish va uning boshliqlarini qo'lga olish vazifasi Andijon uyezdi boshlig'i kapitan Bryanovga topshiriladi. Uning ixtiyoriga O'sh uyezdi boshlig'i podpolkovnik Deybner, uning yordamchisi kapitan Glishanovskiylar boshchiligidagi harbiy kuchlar jo'natiladi.

Darvishxon va uning safdoshlari bilan Bryanov boshchiligidagi harbiy kuchlar birinchi marta 17-avgust kuni kechqurun to'qnashadi. Kutilmagan holatda qilingan hujum natijasida Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar har tarafga chekinishga majbur bo'ladilar. Shundan keyin Darvishxon Namangan tog'lari tomonida o'z atrofiga 800 nafarga yaqin odam to'plashga muvaffaq bo'ladi. Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon haqida Turkiston general – gubernatori O.Rozenbax Rossiya harbiy vaziri lavozimidagi P.S.Vannovskiyni yozgan xatida “qo'zg'olon viloyatning turli joylarida bir vaqtda boshlanishi va qo'zg'olonchilarning o'g'rilik va talonchilik qilmasdan, barcha aholini bu harakatga chaqirilishi, bu harakatning to'liq ma'noda amaldagi hukumatga qarshi qaratilganligini ko'rsatadi... ular yomon qurollangan, oz sonly bo'lishlariga qaramasdan jiddiy tartibsizliklarni keltirib chiqarishlari..., ayniqsa soliqlar to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi”.³

Rossiya imperiyasi ma'murlari qo'zg'olonni kuch bilan bostirdi. Qo'zg'olon qatnashchilari shu darajada ko'p qamoqqa olindiki, hattoki ularni qamash uchun joy ham topa olmay qoldilar. Joy masalasi asosiy muammoga aylandi. Qo'zg'olon boshlig'i Darvishxon 1886-yilda 22-fevralda Samarqand viloyatining Sutxona qishlog'i yaqinida qo'lga tushiriladi. Lekin u Jizzax shahri yaqinida qochib ketishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olon boshliqlaridan biri Mo'minboy dorga osib o'ldiriladi. Darvishxonning akasi Iskandarning bergan ma'lumotiga qaraganda Darvishxon 1889-yilda Afg'onistonda vafot etgan. Uning boshchiligidagi qo'zg'olon bostirilgan bo'lsada, biroq u bundan keying milliy ozodlik harakatlari olib borilishiga katta turtki bo'ldi deyishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bu davrda bo'lib o'tgan barcha qo'zg'olonlar, dehqonlar chiqishlari, milliy ozodlik harakatlari o'lkamizni Rossiya imperiyasi zulmidan xalos etish uchun amalga oshirilgan. Bu yo'lda minglab insonlar vafot etgan. Bu kabi insonlar vatanimiz uchun o'z jonidan ham kechganlar. Ana shunday vatanparvar shaxslardan biri Darvishxon hisoblanadi. Darvishxon kabi shaxslar o'z davrining yetuk insonlari hisoblangan. Ajdodlarimizning ana shunday vatan uchun barcha narsaga tayyor bo'lib, uni ozodligi uchun ko'rsatgan jasoratlari uchun biz yosh avlod ularni faxr tuyg'usi bilan eslamodamiz, ularga nisbatan yana ham hurmatimiz oshmoqda.

³ S.Tillaboyev. Mustamlakachilarga qarshi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2002.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev. Vtan tarixi. Toshkent. 2010.
2. S.Tillaboyev. Mustamlakachilarga qarshi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon. O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2002.
3. Ziyouz.com kutubxonasi.
4. Z.Ilhomov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.
5. <https://uz.wikipedia.org> sayti.